



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETINING BUYRUG'I

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida
2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayoni ayrim bandlari
ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayonining 2, 3, 10-bandlari ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagagi 314-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, **buyuraman**:

1. Prorektorlar, Filial direktorlari, boshqarma, bo'lim va markaz boshliqlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayonining 2, 3, 10-bandlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (K.Tashev) hamda kafedra mudirlariga bir oy muddatda:

Universitet va filiallardagi kafedralarning ilmiy faoliyatini tahlil qilish asosida kafedraning ilmiy faoliyat ustuvor yo'nalishlari va xususiyatlarini hisobga olib kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish choralarini belgilash;

Ilmiy-tadqiqot markazlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun ularni o'quv laboratoriya va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rish;

Ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatidan daromad topish uchun shart-sharoitlarni yaratish choralarini ko'rish va takliflar kiritish;

Tegishli tarmoq korxonalarining muammolarini ilmiy yechishga yo'naltirilgan kamida 3-yillik dasturni shakllantirish;

Universitet va filialarni tarmoq korxonalari bilan bog'lash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

Kafedralarning tarmoq korxonalari bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish;

Kafedralarni tarmoq korxonalariga biriktirish;

Kafedra o'qituvchilarining korxonlarda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratib berish;

Tarmoq korxonalari bilan tuziladigan 10-yillik hamkorlik shartnomalari bo'yicha takliflarni vazirlikka taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. (Sh. Sadullayeva), Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi (A.Normurodov) 2021-yilning 1-sentyabriga qadar:

Universitetda talaba va ish beruvchilarni bir-biriga bog'lovchi "Karera markazi"ni tashkil etish;

"Karera markazi" faoliyatiga "Marketing va talabalar amaliyoti" bo'limi xodimlarini mas'ul etib belgilash;

"Karera markazi"ga hamkor korxona va tashkilot vakillarini har oyda kamida ikki marotaba kelib, filial talabalarini seleksiya ishlarini amalgaloshirishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish;

Tarmoq korxonalarida talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo'sh ish o'rinaliga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish;

Talabalarga mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash va ish beruvchilar bilan suhbatdan o'tish usullarini o'rgatish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida "Karerani rejalashtirish" nomli maxsus (onlayn) kurs tashkil etish vazifalari yuklatilnsin.

4. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori v.b. (F.Aripjanov), Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi (A.Normurodov), bosh hisobchi (A.Amirov) "Karera markazi" faoliyatiga mas'ul bo'lgan xodimlarga universitet va filiallarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ustamalar berib borish bo'yicha takliflar kiritish;

"Karera markazi" uchun alohida xona ajratish va uni kerakli moddiy-texnik baza hamda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash choralarini ko'rsinlar;

5. "Karera markazi"ning asosiy vazifalari (yo'nalishlari) sifatida quyidagilar belgilansin:

Talabalarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslari, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga kirish uchun rezyumeni tayyorlash va ish beruvchi bilan suhbatdan o'tish usullarini o'rgatish, ishga kirish uchun talab etiladigan hujjatlar bilan tanishtirish;

Iqtisodiyot tarmoqlarining ilg'or mutaxassislarini va ekspertlarini jalb qilgan holda talabalarni kasbga yo'naltirish, mehnat bozoridagi mavjud va istiqboldagi holat, muayyan kasbga, ish joylariga va ish beruvchilarga, istiqbolli korxonalarga oid zamonaviy ma'lumotlar bilan tanishtirish;

Mehnat organlari, tegishli ta'lim muassasalari, manfaatdor idoralar va tashkilotlar ishtirokida ish o'rnlari yarmarkalari, karera kunlarini tashkil etish va talabalarni kelajakda kasbiy faoliyatga qiziqishlarini kuchaytiruvchi tadbirlarni amalgaloshirish;

Universitet va filiallarning mutaxassislar tayyorlash, bitiruvchilarni ishga joylashtirish, universitet va filiallarni muqaddam tamomlagan bitiruvchilarining hozirgi mehnat faoliyati (karerasi) to'g'risida hamda ushbu yo'nalishdagini boshqa tahliliy materiallarni tayyorlash va nashr qilish.


6. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (K.Tashev), O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. (Sh.Sadullayeva), Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorekitori v.b. (F.Aripjanov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



B. Maxkamov

UZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHKENT DIL VA TARJIMAH UNIVERSITETI



Yuridik
mukofot

UZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHKENT DIL VA TARJIMAH UNIVERSITETI
zalozchik - o'qituvchi - o'qituvchi - o'qituvchi - o'qituvchi - o'qituvchi - o'qituvchi
Toshkent shahar
2021 y. 30.07
764 -sonli